



SERVIS LOGISTIKASIDA OMBORLARNING RO`LI

Raxmatov Suxrobbek San`at o`g`li

Andijon Mashinasozlik Instituti

Transport logistikasi yo`nalishi K-102-21-guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Servis logistikasida omborlarning ro`li, omborlarning asosiy vazifalari va tovarlarni iste`molchilarga samarali yetkazib berish to`g`risida ma`lumotlar keltirib o`tilgan.*

Kalit so`zlar: *Servis, ombor, zahira, moddiy oqim, xizmat ko`rsatish, tarkiblashtirish.*

Omborlar logistik tizimning muxim elementlaridan biri hisoblanadi, chunki moddiy oqim harakatining barcha bosqichlaridan zahiralarining saqlab turish uchun inshootlarning ob`ektiv zarurligi mavjud.

Omborlar - bu kelib tushayotgan yuklarni qabul qilish, joylashtirish, saqlash va ularni bevosita iste`molga tayyorlash va iste`molchiga ortib junatishga mo`ljallangan binolar, inshootlar, uskunalar va turli xil kurilmalar majmuidir.

Omborlarning asosiy vazifalari quydgilar:

- * moddiy zahiralarini vaqtincha joylashtirish va saqlash;
- * moddiy oqimlarni tubdan o`zgartirish;
- * xizmat ko`rsatish tizimida logistik servisni ta`minlash.

Omborlarni logistik vazifalari operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida bajariladi, ularga quydgilar kiradi:

- * omborga yuklar olib kelgan transportni jo`natish;
- * kelib tushgan yuklarni q`abul qilish;
- * saqlash joyida materiallarni tanlab olish;
- * materiallarni bevosita iste`molga tayyorlash;
- * materiallarni butlash va idishlarga joylashtirish;
- * yuklarni omborxonada ichidagi harakati;



* omborxonada ichidagi harakat.

Omborlarni samarali ishlashi ko'proq darajada ularning texnik ta'minlanishi, omborga joylashtirishning eng qulay texnologiyasi va ularni boshqarishni avtomatlashtirishga bog'liq. Makro va mikro darajadagi logistik tizimni yaratish uchun avvalo ularning texnik ta'minlanishi talab etiladi. Logistik tizimni texnik ta'minlanish deb logistik jarayonlarni bajarilishini (yuk va axborot oqimlarini qayta ishlashni) ta'minlovchi texnik vositalari majmuasini tushunish kerak[1-3].

Tarkiblashtirishning asosiy maqsad - vazifaviy tamoyillarga muvofiq texnik ta'minot elementlarini turkumlash va guruxlarga ajratish bo'ladi. Misol uchun, hozirgi vaqtda mavjud turkumlash bo'yicha omborlarni texnologik ta'minlanishning barcha vositalari turtga sinfga ajratiladi:

- * omborxonada uskunalar;
- * ko'tarish transport uskunalar;
- * yordamchi uskunalar;
- * idishlar.

Avtomatik omborxonada agregat-transport majmualariga quyidagilar kiradi:

- * ortish-tushirish va transport vositalari bilan avtomatik boshqaruvchi omborxonada majmualari;
- * avtomatik boshqariluvchi omborxonada majmualari, omborlar avtomatlar.

Eng ko'p foydalanuvchi omborxonada uskunalariga kiruvchi asosiy javonlar:

- * bir joyda turuvchi;
- * aylanuvchi;
- * elevatorli;
- * konteynerli;
- * harakatlanuvchi;
- * gravitatsion[3-6].

Logistik servis darajalari. Hozirgi kunda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun sifatli mahsulot ishlab chiqarishning o'zi kifoya qilmaydi. Mahsulotni xaridorga eltib berish jarayonida ishlab chiqaruvchi yana qo'shimcha xizmatlar taklif qiladi, ya'ni iste'molchining talab ehtiyojlarini to'liq qondirishga urinadi. Logistik



xizmat (logistik servis) bu - mahsulotni eltib berish jarayonida ko`rsatiluvchi xizmatlar jamlanmasidir. Logistik servisning ob`ekti vazifasini material oqimdagi turli-tuman iste`molchilar bajaradilar. Logistik servis yoki ta`minotchining o`zi tomonidan yoki mahsulotlarni eltib berishga ixtisoslashgan maxsus ekspeditorlik firmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Logistik xizmat ko`rsatishga oid ishlar uch guruhga bo`lish mumkin:

1. Logistik servisni ro`yxatga olishga qaratilgan sotuvgacha bo`lgan ishlar— asosan, bu servisning darajasini rejalashtirish ishlarini o`z ichiga oladi.

2. Mahsulotlarni sotish jarayonida amalga oshiriluvchi logistik xizmatga oid ishlar:

- assortimentni yig`ish, qadoqlash, yuk birliklarini shakllantirish va boshqa operatsiyalar;

- eltuvchining ishonchliligini ta`minlash;

- eltib berish muddatlarini qisqartirish;

- yuklarning bosib o`tgan yo`li borasida ma`lumot taqdim etish.

3. Sotuvdan keyingi xizmatlar. Bu kafolat, xaridorlardan kelib tushayotgan shikoyatlarni ko`rib chiqish va hk. Sotilgan mahsulotlar reestrini yaratish sifatli mahsulotlar sarfini aniq belgilash, domiy nuqsonli mahsulotlarni aniqlash va ulardagi nusqonni bartaraf qilishga doir chora-tadbirlar ko`rish imkonini beradi. Barcha sotuvdan keyingi xizmatlarni shunga oid tajribaga ega bo`lgan maxsus servis xizmatlari amalga oshirishlari lozim. Tashkilotning logistik xizmat ko`rsatish darajasi bir nechta omillarga ko`ra baholanishi mumkin[7-9].

ADABIYOTLAR

1. Gaffarov Makhammatzokir Toshtemirovich , Nasirov Ilham Zakirovich , Sobirova Tursunoy Abdipatto kizi , Hakimov Mavlonbek Solijon ugli. (2023). Recovery Of Fines From Drivers Of Foreign Vehicles. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3589–3591. <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.446>.

2. Nasirov Ilkham Zakirovich- Ph.D., Gaffarov Mukhammadzokir Toshtemirovich , Doctoral Student. (2023). Consequences Of Complete And



Undercombustion Of Fuel. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3597–3603.

<https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.448>.

3. Malokhatkhon Karimovna KOSIMOVA, Davlatkhon Karimovna MUQIMOVA, Ilham Zakirovich NASIROV, Bahodirjon Zakirovich NOSIROV.

WELDING MATERIALS USED IN THE RECOVERY OF CORRODED DETAILS IN THE CONTACT WELDING METHOD// *Eur. Chem. Bull.*

2023, 12(5), 1657-1662. DOI: <https://doi.org/10.47750/pnr.2023.14.03.446>.

<https://eurchembull.com/uploads/paper/5aa8cc7f80ab74316113aca9aab7cb42.pdf>.

4. NASIROV ILXAM ZAKIROVICH, NURDINOV MURODALI ALIJONOVICH, GAFFAROV MUKHAMMADZOKIR

TOSHTEMIROVICH, XAYDAROV MURODJON AKBARALIYEVICH, TO'RABOYEV HOLMUROD RUSTAMJON O'G'LI. CONDUCTING

LESSONS IN INVENTIVE METHODS// *The Seybold Report- Seybold Publication*, Box 644, 428 E. Baltimor Ave. Media, PA 19063. 227-234 p.

<https://www.seyboldreport.org/issues>

[Nasirov Ilham Zakirovich, Nurdinov Murodali Alijonovich, Nosirov Bahodirjon, Kuzibolaeva Dilnoza Tukhtasinovna, Obidzhonova Gulizebo Shukhratbek kizi.](#)

EFFECT OF SYNTHESIS GAS SUPPLY ON ENGINE PERFORMANCE// *MSW MANAGEMENT -Multidisciplinary, Scientific Work and Management Journal.*

ISSN: 1053-7899, Vol. 33 Issue 2, December – 2023, Pages: 125-132.

<https://mswmanagementj.com/index.php/home/article/view/50>